

VI. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning xilma-hilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish (2024- yil yanvar-mart)

	mlrd. so‘m	O‘shish sur‘ati, % da	Jamiga nisbatan % da
Jami xizmatlar	5 023,8	110,6	100,0
<i>shu jumladan: xizmat turlari bo‘yicha</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmati	247,7	110,1	4,9
Moliyaviy xizmatlar	778,4	90,5	15,5
Transport xizmati	1 029,0	122,4	20,5
<i>shu jumladan:</i> avtotransport xizmatlari	864,5	122,5	17,2
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	134,6	109,3	2,7
Savdo xizmatlari	1 536,7	111,6	30,6
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	120,4	109,1	2,4
Ta’lim sohasidagi xizmatlar	294,1	151,0	5,9
Sog‘liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	110,2	106,5	2,2
Ijara va prokat xizmatlari	77,8	110,3	1,5
Kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta’mirlesh xizmatlari	144,7	107,1	2,9
Boshqa shaxsiy xizmatlar	335,7	109,0	6,7
Me’morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlarva tahlil sohasidagi xizmatlar	50,7	109,5	1,0
Boshqa turdagi xizmatlar	163,8	110,3	3,3

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni savdo xizmatlari (30,6 %), transport xizmatlari (20,5 %) moliyaviy xizmatlar (15,5 %), tashkil etgan.

Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (1,0 %), sog'liqni saqlash xizmatlari (2,2 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (2,7 %) tashkil etgan.

**2024- yil yanvar-mart oylarida bajarilgan
xizmatlar tarkibi, (% da)**



2024- yil yanvar-mart oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 5 023,8 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Savdo xizmatlari 111,6 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 30,6 % ni tashkil etdi.

Transport xizmati 122,4 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 20,5 % ni tashkil etdi.


Moliyaviy xizmatlar 90,5 % ga oshgan va jami xizmat tarkibida 15,5 % ni tashkil etdi.

Shaxsiy xizmatlar 109,0 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 6,7 % ni tashkil etdi.


Aloqa axborotlashtirish xizmati 110,1 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 4,9 % ni tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar 151,0 % ga oshgan bo'lib, va jami xizmat tarkibidagi ulushi 5,9 % ni tashkil etdi.

2024- yil yanvar-mart oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi
(jami xajmga nisbatan, % da)



Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarilishi
(2024- yil yanvar-mart, mlrd.so 'm)




■ Hajm, mlrd. so 'm

Hududlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi
(2024- yil yanvar-mart)

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd. so'm	2023- yil yanvar-mart oylariga nisbatan, % da	Ulushi % da	mlrd. so'm	2023- yil yanvar- mart oylariga nisbatan, % da
Viloyat jami	5 023,8	110,6	100,0	1 634,8	108,2
Namangan sh.	1 957,1	111,2	39,0	2 801,8	108,3
Mingbuloq	195,3	110,3	3,9	1 423,6	108,0
Kosonsoy	273,7	108,8	5,4	1 197,8	106,2
Namangan t.	269,2	109,3	5,4	1 394,3	106,8
Norin	219,0	109,5	4,4	1 243,6	107,5
Pop	327,8	112,3	6,5	1 388,6	110,2
To'raqo'rg'on	318,6	105,6	6,3	1 296,7	103,2
Uychi	330,4	111,6	6,6	1 418,5	109,1
Uchqo'rg'on	244,0	110,8	4,9	1 314,1	108,6
Chortoq	273,0	112,6	5,4	1 268,0	110,3
Chust	359,0	111,2	7,1	1 254,0	108,8
Yangiqo'rg'on	256,7	111,2	5,1	1 080,2	108,9

Shahar va tumanlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi aholi jon boshiga




(2024- yil yanvar-mart, ming so'm)

Hududlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'ati Namangan shahrida 1 957,1 mlrd. so'm (111,2 %) va Pop tumanida 327,9 mlrd. so'm (112,3 %)ga to'g'ri keldi.

Aholi jon boshiga eng katta xizmatlar hajmi Namangan shahrida (2 801,8 ming so'm), Mingbuloq tumanida (1 423,6 ming so'm) va Namangan tumanida (1 394,3 ming so'm) qayd etildi.

2024- yil yanvar-mart oylarida alohida xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



■ 2023- yil yanvar-mart

■ 2024- yil yanvar-mart

Yuqori o'sish sur'atlari ta'lim sohasidagi xizmatlar (151,0 %), Aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (110,1 %), Yashash va ovqatlanish xizmatlari (109,3 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.


Transport xizmatlari tarkibida yetakchi o'rinni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (84,0 %) egallaydi. Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy hajmining 15,4 % ni tashkil qiladi.

Pochta va kurerlik faoliyati bo'yicha transport xizmatlarining 0,6 % ni tashkil etadi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2024- yil yanvar-mart oylarida uning ulushi 76,8 % ni tashkil etadi.


Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarning (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 17,6 % ga yetdi.

2024- yil yanvar-mart oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, % da



Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 5,6 % ni egallaydi.



- Avtomobil va motosikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va motosikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda
- Ulgurji savdo xizmatlari (Avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobil va motosikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar